

MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA’MINLASHDA “O‘ZBEKISTON MODELI”

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

AndQXAI, Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: sanjarisomiddinov147@gmail.com

Baxtiyorov Davronbek Zayniddin o‘g‘li

AndQXAI, Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: davronbekbaxtiyorov02@gmail.com

Mansurova Muborak Adhamjon qizi

AndQXAI, Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: muborakmansurova949@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik tushunchasi haqida, uni ta’minalashda O‘zbekistonning amalga oshirayotgan islohotlari, “O‘zbekiston modeli”, bugungi kundagi holati, dolzabrlik sabablari hamda mavzuni o‘rganishdan kelib chiqib natija va xulosalar bayon qilingan, shuningdek, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minalashga doir bir qator takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglikni, mentalitet, mafkura, model, globallashuv, konfessiya, g‘oya, separatizm.

АННОТАЦИЯ

В статье описываются концепция межэтнического согласия и толерантности, реформы, реализуемые Узбекистаном в целях его обеспечения, “модель Узбекистана”, ее нынешнее положение, причины проблемы, а также результаты и выводы, основанные на исследования темы, а также дан ряд предложений по обеспечению межнационального согласия и толерантности.

Ключевые слова: Международная гармония, толерантность, менталитет, идеология, модель, глобализация, конфессия, идея, сепаратизм.

ABSTRACT

The article describes the concept of inter-ethnic harmony and tolerance, the reforms carried out by Uzbekistan to ensure it, the "Uzbekistan model", the current situation, the causes of conflict and the results and conclusions based on the study of the topic, as well as inter-ethnic a number of suggestions for ensuring harmony and tolerance are given.

Keywords: International harmony, tolerance, mentality, ideology, model, globalization, confession, idea, separatism.

KIRISH

Ona Vatanimiz O‘zbekiston ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar emin-erkin yashab kelmoqdalar. Shu o‘rinda, Konstitutsiyamizning Muqaddima qismida: “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi:

- O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib;

- fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad qilgan holda,

ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” deb, shuningdek 8-moddasida esa “O‘zbekiston xalqini millatidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” deb yozib qo‘yilganligi ham bejizga emas. Bu shuni ko‘rsatadiki, Asosiy Qonunimiz qabul qilinayotganda xalqimizning milliy tarkibi albatta inobatga olingan va har bir O‘zbekiston fuqarosi millati, dini, tili, e’tiqodi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, qonun oldida teng ekanligi, hamda ularning huquq va erkinliklari birdekkimoya qilinishi kafolatlab qo‘yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Ma’lumot o‘rnida aytish joizki, O‘zbekiston aholisining 80 % ini o‘zbek, 4,9 % ini tojik, 3,8 % ini rus, 3,6 % ini qozoq va 7,7 % ini boshqa turli millatlarga mansub kishilar tashkil etadi [1]. O‘zbekiston nafaqat turli millatli, shuningdek, turli dinli davlat ham hisoblanib, bu yerda 16 ta diniy konfessiya vakillari, ya’ni har xil dinga sig‘inuvchi, turli e’tiqodli xalqimiz, davlatimiz tomonidan yaratilgan bir xil shart-sharoitlarda, bir-birlarining e’tiqodlarini hurmat qilgan holda yashab kelishmoqda. Buning qonuniy kafolatini biz Konstitutsiyamizning 31-moddasida ko‘rishimiz mumkin: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” [2]. Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston aholisining 88 foizi islom diniga, 10 foizidan ziyodi boshqa dinlarga e’tiqod qiladi, 1,8 foizi hech qaysi dinga e’tiqod qilmaydi. Ayni paytda, O‘zbekistonda islom dini bilan bir qatorda, pravoslavlар, baptistlar, yahudiylar, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, krishnaitlar, buddistlar, pyatidesyatniklar, Iegova shohidlari, yangi havvoriylar, xristian-presbyterianlar singari bir qancha din va mazhablar mavjud [3]. Ulardan har birining o‘ziga xos mafkurasi, talab va ehtiyojlari mavjud. Shulardan kelib chiqib ham, yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalasini mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab davlat siyosati darajasiga ko‘tarishlikni taqazo etdi. Ayni shu maqsadlarni ko‘zlab, 1991-yil 31-avgustda o‘z ishini boshlagan O‘zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasida Birinchi Prezidentimiz

I.A.Karimov nutq so‘zlab, O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlar ekan, “Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo‘ymoqchiman: O‘zbekistonning mustaqilligi haqidagi Qonunni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etaman. Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyormizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish-irodasi o‘z ifodasini topgan. Xalqimizning bu ezgu xohish-irodasi biz uchun muqaddasdir»[4], — degan fikr bildirilganligi va «O‘zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilishda uning har biri moddasi muhokama qilinib, yuqoridagi masalalar e’tiborsiz qoldirilmaganligi ham O‘zbekistonning mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minalashda “o‘z modeli”ni ishlab chiqqanligidan dalolatdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og‘zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Sababi shundaki, XX asrning 90-yillari boshlarida Sovet ittifoqi parchalangach, uning g‘oyasi ham asta-sekin yo‘qolib borayotgan, unda yashab kelayotgan aholining sho‘rida noto‘g‘ri qarashlar vujudga kelayotgan, separatizm urug‘lari tarqalishni boshlayotgan, Sovet mustamlakasidan xalos bo‘lgan davlatlar tarixiga “mafkuraviy bo‘shliq” davri (1990-92-yillar) sifatida kirgan bir tahlikali davrda millatlararo totuvlik g‘oyasini har bir inson mafkurasiga singdirishga qaratilgan, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar negizida ham “O‘zbekiston modelini” ko‘rishimiz mumkin. Millatlararo totuvlik g‘oyasi Yer yuzida yashayotgan barcha etnik guruhlarning teng huquqlilik, o‘zaro hurmat va hamkorlik asosida tinch-totuv yashash, millatlararo totuvlik g‘oyasi birdamlik va barqarorlik g‘oyasi ekanligi, u barcha millat va elatlarning tili, urf-odati, an’analari, bayramlari rivojlanishini talab etishi bilan birga unga sharoit yaratib beruvchi, millatchilik, fashizm, milliy va etnik ko‘rinishdagi urushlarga qarshi turadigan yagona ma’rifiy g‘oya bo‘lishligi to hozirgacha yurtimizning qaysi burchagida bo‘lmisin bod-bod takrorlanmoqda va xalqimizning milliy g‘oyasiga aylanib ulgurdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, bugun neofashizm bosh ko‘tarayotgan, sivilizatsiyalararo to‘qnashuvlar sodir bo‘layotgan sharoitda millatlararo totuvlik g‘oyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va bu hozirgi juda tez sur’atda o‘zgarib borayotgan kurayi zaminda hech qaysi davlatning e’tiboridan chetda qolmasligi zarurligi haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan butunjahon minbarlarida ta’kidlab kelinayotganligi ham bejizga emas.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Dunyoda “Globallashuv” jarayoni shiddatli tus olgan bugungi kunda turli madaniyat va dinga mansub xalqlar o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlikni

rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston zaminida azaldan islom dini bilan yonma –yon boshqa dinlar, madaniyatlar ham yashab, rivojlanib kelganligini tarix guvohlik beradi. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov va sinagogalar mavjud bo‘lgani, turli millat va dinka mansub qavmlarning o‘z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig‘idir. Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘limganligi xalqimizning diniy bag‘rikenglik borasida katta tajriba to‘planganidan dalolat beradi. Hozir yurtimizda turli millat va elat vakillarining diniy urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarini saqlab qolish hamda bag‘rikenglik tamoyillarini ta’minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Muhimi, bag‘rikenglik xalqimizning azaliy qadriyatlariga aylanganini butun jahon e’tirof etmoqda.

Shu o‘rinda taklifim bor edi:

- millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni targ‘ib qiluvchi OAVlarning rolini oshirish, ularga bu boradagi faoliyatlariga imtiyozlar berishni yo‘lga qo‘yish;
- millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik ta’minlashdagi say-harakatlari uchun davlat mukofotlari joriy etish;
- ko‘p tilli, bir necha millat farzandi o‘qishi mumkin bo‘lgan maktablar faoliyatini tashkil etish;
- mahalliy hokimiyatlarda va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida shu masala bilan shug‘ullanuvchi alohida lavozim joriy etish zarur deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Jo‘rayev N., Zamonov A., O‘zbekiston tarixi, darslik.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018.-47-bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent-“Adolat”-2023, 7-bet.
3. Jo‘rayev N., Zamonov A., O‘zbekiston (Mustaqillik davri)tarixi, darslik.-T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018.-65-bet.
4. <http://azkurs.org/jorayev-0-zbekiston-tarixi-milliy-istiqlol-davri-uchinchikito.html?page=20>